

G'AFUR G'ULOMNING "VAQT" SHE'RI LINGVOPOETIK TAHLILI

Ismoiljonova Visolabonu G'ayratjon qizi

*Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti Lingvistika yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada bugungi o'zbek tilshunosligida lingvopoetika tushunchasining mohiyati xususida so'z boradi. Badiiy matn lingvopoetik tahlil qilinganda, badiiy aktuallashgan leksik vositalar asosida badiiy takror, o'xshatish, qiyoslash, jonlantirishdan iborat mantiqiy tushunchalar va yana bir qancha tamoyillar asosida yoritiladi. Maqolada ushbu tushunchalar G'afur G'ulomning "Vaqt" she'ri misolida tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Lingvopoetika tushunchasi, badiiy matnni lingvopoetik tahlili, aktuallashgan leksik til vositalar, metafora, shakl va mazmun birligi, zamon va makon birligi, intertekstuallik, implitsitlik, eksplitsiklik, adabiy til, badiiy matnga badiiy estetik yaxlitlik.*

Keyingi yillarda lingvopoetika sohasini o'rganish davrning dolzarb ilmiy-nazariy masalalari, muammolari bilan xarakterlanadi. Xususan, badiiy asar tilini lingvopoetik xususiyatlari nuqtai nazaridan kuzatib, o'rganib borishni, bu yo'nalishda tahlil qilishni, baholashni izchil yo'lga qo'yish bugungi o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir. Negaki, til va adabiyot hamisha bir-birini to'ldirib, uyg'unlikda taraqqiy etib kelgan. Lingvopoetika sohasining yuzaga kelishida tilshunoslik fanining adabiyotshunoslik bilan hamkorligi natijasida yangi termin va u bilan bog'liq tushunchalar doirasi kengayishiga olib keldi. Shu bois bunday tadqiqotlar asosida tilshunoslarimiz tomonidan badiiy matnni til va adabiyot nuqtayi nazaridan tadqiq etishda qo'llaniladigan usullar ishlab chiqilmoqda. Adabiyotning nasri ham, she'riyati ham qator yangi badiiy asarlar bilan boyimoqda. Ular asosida lingvopoetik tadqiqotchilikni faol yuritish maqsadga muvofiqdir. Ana shu zaruriyat bilan bog'liq dunyoqarash tilshunoslik ilmini o'qitish jarayoniga ham o'zining katta hissasini qo'shmoqda.

Ijodkor tomonidan uning mahorati darajasiga ko'ra yaratilgan muayyan badiiy kontekst qurshovida mazkur birliklarning ayrimlari alohida badiiy-estetik ta'kid oladi. Lingvopoetik tahlilning ayni shu tamoyili, ya'ni poetik aktuallashgan til vositalari – poetik mazmun bilan til birliklarini aniqlash va ularni tegishli tarzda baholash maqsadga muvofiqdir. Bunday tahlil ijodkorning tilimizning so'z boyligi imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahoratini ko'rsatish hamda asarning badiiy birliklarini butun mohiyatini ochishga, xolis baholashga ko'maklashadi. Xususan, badiiy matn lingvistik tadqiqida so'zning estetik ta'siri, ma'no va mazmun uyg'unligi, lingvopoetik tahlil olib borishda muallifning individual uslubi, badiiy matnning mohiyati va estetik vazifasi, badiiy matn estetik ta'sirini oshiruvchi badiiy

aktuallashgan leksik vositalarning tahlili kabi masalalarga alohida to'xtalish lozim. Shu sababli ham "lingvopoetika" deb ataluvchi matn lingvistikasining mustaqil sohasi tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda.

Har qanday badiiy matn asosida so'z va shu so'zlarning mantiqiy birlashishi natijasida hosil bo'lgan sodda va murakkab tuzilishga ega sintaktik birliklar yotar ekan, ushbu maqolamizda o'zbek she'riyatining sevimli shoiri G'afur G'ulomning "Vaqt" she'ri misolida so'zning badiiy asar qiymatini oshirishdagi muhim jihatlarini tadqiq etamiz.

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni

Kapalak umriga qiyos etgulik,

Ba'zida bir nafas olgulik muddat –

Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.

Adibning "Vaqt" she'riga yuzaki qaraydigan bo'lsak, oddiy ma'no bordek tuyuladi, lekin bu she'rni chuqur o'rgansak, o'ta mavhum hamda qudratli hodisani guvohi bo'lishimiz mumkin. Chunki vaqtsiz hech narsa qilib bo'lmaydi. Hamma ishning oxiri borib vaqtga taqaladi. Bu bandda har bir soniya, har bir on nazarda tutilgan. Vaqt go'yoki kapalak umriga qiyos etilgan, chunki barchamizga ma'lumki, kapalak umri naqadar oz va shu bilan birgalikda bizning umrimiz ham. Shoirning "Vaqt" she'rida vaqt zohiran sodda, botinan esa tushunilishi qiyin she'r hisoblanadi. She'r misralari sirtidan qaraganda oddiy bo'lib ko'rinadi, ularning ma'nosini anglashimiz esa biroz qiyindek tuyuladi. She'r ma'nosini anglamaguncha esa uning obrazini shakllantira olmaymiz. Bu turdagi she'rlarda avval obraz ko'zga tashlanib, keyin obraz bilan birgalikda ma'no anglashiladi. Lekin G'afur G'ulomning "Vaqt" she'rida esa avval so'z va misralardagi ma'noni anglashimiz lozim, shundan keyingina esa bizning ongimizga she'r obrazidagi tasavvurlar kela boshlaydi. Go'yoki, she'r chalg'ituvchi soddalikni bosib o'tib, zamirida zil ma'nolar yashiringan misralarni anglashga uringan, shunday urinish shoirning naqadar mahoratli va so'zlarni o'z o'rnida qanchalik mos ravishda qo'llay olishini ko'rsatadi.

G'afur G'ulom ham o'z zamonasining davri haqida yozgan, shuning uchun ham adibning ushbu she'rini zamonasizlik deb ham bo'lmaydi. Unda joriy zamonga oid voqea –hodisa va shaxslar tilga olinadi va bunday jarayon lingvopoetikaning zamon va makon birligi nuqtai nazarridan tahlil qilinadi.

Ushbu she'rning boshidan to oxiriga qadar har bir qatori, har bir so'zlari vaqtga ishoradir. Asarda yaxlitlik birgina "Vaqt" so'ziga jamlangan, she'r batamom vaqt haqida yozilgan, zamona esa shu vaqtning bir parchasi, abadiyat nigohida qaralsa, u mutlaq vaqtning bir parchasi xolos. G'afur G'ulomning "Vaqt" she'rini qisqacha tahlil qilish natijasida, vaqtning qadri, har bir o'tadigan soniyamizning qadriga yetishimiz, uni behuda narsalarga sarf qilmasligimiz kerakligini chuqur tushunib yetamiz. She'rning badiiy estetikligini, uning ma'no bo'yoqdorligini oshirish maqsadida umrimizning har bir lahzasi vaqtga qiyoslangan. "G'uncha ochilguncha", "Kapalak umri", "Yulduz so'nishi", "Ko'z ochib yumguncha", "Barini tutolmas ayuhannos ovoz",

“Quyoshki falakda kezib yuribdi”, “Umrzoq soqiy” iboralarida vaqtning naqadar tez o’tishi nazarda tutilgan. Shoir she’rda birgina “Vaqt” so’zini takror va takror ishlatmasdan, judayam go’zal tarzda bir qancha quyida keltirilgan sinonimlari bilan ifodalagan: “Umr”, “On”, “Lahza”, “Sekund”, “G’animat”, “Fursat”, “Muddat”, “Yashash”, “Tiriklik”, “Dam”, “Boqiy”, “Qadr”, “Qultum”.

(Menga soat taqdim etgan jiyanim mayor Hamidulla Husan o’g’liga bag’ishlangan)

Shoir she’rini boshlar ekan, ushbu asari jiyani mayor Hamidulla Husanga atalganini quyidagi jumladan anglashimiz mumkin: “Menga soat taqdim etgan jiyanim mayor Hamidulla Husan o’g’liga bag’ishlangan”. Ushbu jarayon intertekstuallikning yaqqol namunasidir.

Shoir she’rni birinchi to’rt qatori orqali vaqtni quyidagi timsollar orqali tushuntirishga harakat qiladi: bir gul unib, go’zal g’uncha misol ochilishi uchun ketgan fursatni shoir kapalak umrga qiyos etadi. Ma’lumki, kapalak umri qisqa bo’ladi. Shoir yuqoridagi misol orqali umrning tez o’tishi, vaqtning g’animat ekanligini nihoyatda go’zal misollar bilan ta’riflagan va intertekstuallikning metafora ko’rinishida namoyon bo’lmoqda “kapalak umridek”, “yulduz so’nishi”. Keyingi jumlada esa ba’zida insonning bir marotaba nafas olishi uchun ketgan muddat ming yulduz (ya’ni insonlar) so’nishi uchun yetgulik deya yana bir bor vaqt tez o’tib ketishi implitsitlik ko’rinishida namoyon bo’ladi.

She’r adabiy til va umumxalq tili munosabati jihatidan tahlil qilinsa, asar adabiy tilda, sodda, ravon va tushunarli yozilgan. She’rni ma’no, mohiyati har bir kitobxon hamda o’quvchilar uchun judayam aniq tushuniladigan so’zlar orqali bayon etilgan.

Yarim soat ichida tug’ilib, o’sib,  
Yashab, umr ko’rib, o’tguvchilar bor;  
Ko’z ochib yumguncha o’tgan dam qimmat,  
Bir lahza mazmuni bir butun bahor.

“Yarim soat ichida tug’ilib, o’sib, Yashab, umr ko’rib, o’tguvchilar bor” – implitsit hodisali ushbu jumlaning tahlil qiladigan bo’lsak, qisqa muddatda tug’ilib, umrini boqiyga muhraydigan insonlar ko’p. Ularni qisqa muddat yashadi deya olmaymiz, chunki ular xotiralarda mangu yashaydi. Shoir yuqoridagi jumla orqali aynan shunday insonlarni eslab o’tgandir.

Insonning qancha umr ko’rgani emas, balki, qanday umr ko’rgani muhimroqdir. Keyingi jumlar esa inson ko’z ochib yumushi uchun ketgan bir soniyalik muddatda dunyoda qancha voqealar sodir bo’lishi, qanchalab insonlar tug’ilishi-yu, yana qanchalab insonlar bu foni dunyoni tark etishi ko’zda tutilgan. “Bir lahza mazmuni bir butun bahor”- ushbu jumla orqali shoir umrimiz davomida bir lahzalik tuygan baxtimiz, butun umrimiz uchun kifoya qilishi mumkinligini izohlamogda. Jumla bo’yoqdorligini oshirish uchun ishlatilgan “Bahor” - so’zi esa yoshlikni, yoshlikdagi shijoat, kuch-qudrat bo’lishi ehtimol.

Bir onning bahosin o’lchamoq uchun  
Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.

Nurlar qadami-la chopgan sekundning

Barini tutolmas ayuhannos ovoz.

Yuqoridagi jumlar vaqtning bahosi haqida ketadi. Bir on, bir soniyaning qimmatini o'lchash, qadrini bilish, sotib olish uchun xoh oltindan tarozi yasasak ham, xoh olmosdan ozligi aytilmoqda. Keyingi jumalarda sekundlar, sekundlar ortidan soatlar hamda soatlar ortidan kunlar, shu tariqa umrimiz o'taverishini shoir "nurlar qadami-la chopgan sekund", deya vaqtning tez o'tib ketishini juda go'zal taqqoslagan. "Barini tutolmas ayuhannos ovoz" - ya'ni, sekundlar, soatlar, umr o'tib ketguvchidir, uni xoh baqirib, xoh chaqirib ham tutib qola olmaymiz.

Yashash darbozasi ostonasidan,

Zarhal kitob kabi ochilur olam.

Tiriklik ko'rkidir mehnat, muhabbat,

Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram.

Shoir bu to'rtlik orqali biz hayotga kelishimiz ya'ni onamiz qornidan yer yuziga kelgan kunimizdanoq biz uchun yangi kitob ochilishi, undagi sahifalarni biz o'zimiz yaratishimiz aks etmoqda. Yuqoridagi jumlar orqali "Zarhal kitob" "Zarhal" so'zi ko'pincha zargarlikda ishlatilib, tilla, kumush eritilgan suyuq holatda buyumlarning ustiga yugurtirilgan bo'ladi. Shoir o'z she'rida kitobning yangi sahifani nazarda tutgan bo'lsa ajab emas. She'rda tiriklik, yashashning ko'rki, mazmuni "Muhabbat" hamda "Mehnat" deyilishi ham bejizga emas, chunki inson bu hayotda muhabbatsiz, mehrsiz yashab, atrofga nafrat urug'larini sohib yashagan inson yashamagan bilan tengdir. Muhabbat ila mehnat qilsak, har bir qilgan ishimiz go'zal san'at misoli umr daftarimiz sahifalarini bezaydi. "Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram", vaqt - oliy hakam deya bejizga aytilmagan. Vaqt o'tishi mumkin, ammo biz qilgan ishlar, yaxshi-yomon munosabatlar insonlar xotirasida abadiy yashaydi.

G'alaba amri-la mag'lub nemisning

Generali qo'l qo'ydi. Uch sekund faqat...

Shu mal'un imzoda odamlar o'qur

Million yil fashistning umriga la'nat.

Bilamizki, G'afur G'ulom jahon urushlari davrida yashagan. Urushning dardi, azobi, alamini tuygan shoir. 2-jahon urushida nemis xalqi mag'lubiyatga uchraydi, hamda ushbu mag'lubiyat uchun chekilgan imzo uchun esa "3 sekund" kifoya. Ana shu 3 sekundlik imzoda qanchadan -qancha millionlab odamlarning azobi, dardlari yashirindir. Shu to'rt qatorlik she'rda urushni qoralash, urush davrininng azoblari, yetim qolgan bolalar, farzandsiz qolgan onalar fig'onlari tasvirlangan. Endi ular "Fashistning umrini la'natlab" o'tishadi. Ushbu qatordagi "La'nat" so'zi voqeani yanada ta'sirliroq ko'rsatish uchun ishlatilgan, fashistlarga bo'lgan nafrat shu qanadar kuchliligini anglatib, poetik aktuallashgan til vositasi sirasiga kiradi.

Aziz asrimizning aziz onlari,

Aziz odamlardan so'raydi qadrin.

Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la

Bezamoq chog'idir umr daftarin.

Qancha kunlar, yillar, asrlar o'tsa ham insonlar ongi, xotirasida umr daftarinini eng ezgu ishlar bilan bezashligi qolaveradi. Bekorga shoir "Aziz insonlardan so'raydi qadrin" deya keltirmagan, chunki bu asrda insonlar vaqt qadrini bilmay, uni jahon urushlariga sovrishdi. Oqibatda millionlab insonlar, qanchadan qancha begunoh bolalar, yosh yigitlar, farzandsiz qolgan onalar urush qurboniga aylanishdi. Shoir vaqtni tez o'tib ketguvchi ekanligini "Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la, Bezamoq chog'idir umr daftarin" jumalari orqali ta'kidlamoqda.

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek,  
Diana ma'badin yoqmoq shart emas,  
Ko'plarning baxtiga o'zlikni jamlab,  
Shu ulug' binoga bir g'isht qo'ysak bas.

Ushbu to'rtlikda Gerostrat, Diana ma'badin so'zlari ular bilan bog'liq tarixiy voqealarga ishora qilinmoqda intertekstuallikning yaqqol namunasi aks etgan.

Hayot sharobidan bir qultum yutay,  
Damlar g'animatdir, umrzoq soqiy.  
Quyoshki falakda kezib yuribdi,  
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.

She'ning yakuni, nihoyasi sifatida ushbu jumlar tanlangan:

"Hayot sharobidan bir qultum yutay", hayotda biror narsaga harakat qilib ko'rish, maqsadlar sari qadam tashlashdir. Shuningdek, she'ning keyingi jumlasini hayotimizning har bir daqiqasi, soniyasi g'animatligiga eslatma sifatida yozilgan.

Shoir she'ning so'nggi jumalari orqali "quyoshki falakda kezib yuribdi" misoli sifatida vaqtning o'tishini keltirgan, she'ning yakunlanishi esa bejizga "Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy" deya bitilmagan.

Chunki vaqtlar o'tar, umrlar o'tar, ammo, shoirning xotirasi, yodi uning she'rlarida, asarlarida mangu yashaydi hamda kitobxonlar uchun vaqt qadriga yetishga da'vat bo'lib davom etaveradi va nafaqat shoirning balki har bir insonning ularning yodi, xotirasi, ular qilgan ezgu amallarida barhayot bo'ladi hamda xotiralarda muhrlanadi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, ushbu umumiy tamoyillar asosida lingvopoetik tahlil olib borilganda, estetik butunlik sifatidagi badiiy matnning mohiyati va uni tuzuvchining mahoratini holis baholash mumkin bo'ladi.

Demak, lingvopoetik tahlil tamoyillari o'zbek tilidagi badiiy matnlarning betakror imkoniyatlarining ochib berilishiga zamin yaratadi.

G'afur G'ulomning nafaqat "Vaqt" she'ri balki, barcha qolgan she'rlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilinishi, xususan, uning badiiy aktuallashtirilgan leksik qoliplardan qay darajada foydalana olish qobiliyatlarini o'ziga xos ekanligi shoirning original uslubni yarata olganligidan dalolatdi.

Yozuvchining kitobxonlar qalbidan chuqur o'rin olishi, uning ruhiyatiga, hissiyotiga kuchli ta'sir qilishining sababi ham mana shunda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Xolodovich A. K voprosu o lingvisticheskom metode v poetike // V borbe za marksizm v literaturnoy nauke. – L.: Priboy, 1930.
- 2.Tuxsanov M. Mikrotekst i sistema virajeniya ego kogenetnosti v uzbekskoy xudojestvennoy rechi: Avtoref.diss. ...k-ta filol.nauk. -Tashkent, 1987.
- 3.Turniyozov N. Matn lingvistikasi (ma'ruzalar matni). -Samarqand, 2004.
- 4.Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent, Ozbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, "Fan" nashriyoti. 2008.
- 5.Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol.fan.dokt...dis.-Toshkent, 2009.
- 6.Jalolov J. Badiiy matnlarning lingvopoetik tahlili. FDU prof, pedagogika fanlari nomzodi. 2022.
- 7.Inogamova N.Sh. Lingvopoetik tahlil, uning badiiy asar qimmatini oshirishdagi o'рни. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU, 2022.